

**ISSN 2181-6883**

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**3-son (2021-yil, iyun)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

## **Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, № 3**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

### **Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy  
Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

### **TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinnbosari:** Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul kotib:** Hamroyev Aljon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО**  
**Научно-теоретический и методический журнал**  
**№ 3, 2021**

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решении ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по **педагогике и психологии**.

Журнал основан в 2001г.

Журнал выходит 6 раза в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель: Бухарский государственный университет**

**Адрес редакции:** Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

e-mail: ped\_mahorat@mail.uz

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Заместитель главного редактора:** Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук (DSc), доцент

*Хамидов Обиджон Хафизович , доктор экономических наук*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Чудакова Вера Петровна, PhD (Психология) (Киев, Украина)*

*Таджиходжасев Закирходжса Абдулсаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоной Сайджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Каххаров Отабек Сиддикович, доктор экономических наук (DSc)*

Bahodir QO‘CHQOROV. “Devonu lug’otit turk” asarida bolalar o‘yinlari .....	153
Sulaymon HALIMOV. G’aribiy ijodining o‘ziga xos xususiyatlari.....	156
Nozgul SIDIQOVA. Tilshunoslikda pereyonimlarning shakllanish asoslari .....	161
Sitorabegim MUXAMEDJANOVA. Talabalarda kasbiy faoliyatga oid ingliz tilini o‘qitish jarayonida kommunikativ madaniyatni rivojlantirish metodlari .....	164
Xolboy IBRAGIMOV, Z.K.SALIMOV. Surxondaryo viloyati Termiz shahri umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishda intensiv metodlarni qo‘llash .....	166
Hilola SUYUNOVA. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda integrativ yondashuvning ahamiyati .....	170
Rahima BERDIYOROVA. Okkazionalizmlarni hosil qilish usullari.....	173
<b>ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH.....</b>	<b>177</b>
Nabija TURAева, Жаҳонгир ТУРАЕВ. Методические рекомендации по обучению будущих учителей математики конструированию и анализу урока .....	177
Dilorom BESHIMOVA. Differensial geometriya va topologiya kursida to‘plamning urinish, chegaraviy, ichki nuqtalarini o‘qitishda “aqliy hujum” metodining tatbiqi .....	180
Sagidat KANATBAYEV. Umumta’lim maktablarida fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishning holati va muammolari .....	185
Mухаммад РАХМАТОВ, Сарвар ИСКАНДАРОВ, Нарзилло БИБУТОВ, Азизжон ХОЖИЕВ. Лабораторные работы по технической механике .....	189
Nozimbek ZARIPOV. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda Web-freelance faoliyati.....	196
Ruslan BAYDULLAYEV, Zamira AXMEDOVA. Yuqori ishonchlilik tizimlari uchun dasturiy ta’milot arxitekturasi .....	199
Mansur ERGASHOV, Aziz JO‘RAYEV. Organik kimyo fani ta’limida zamonaviy metodlardan foydalanish orqali talabalarda interaktivlikni oshirish .....	204
Laziz NIYAZOV, Baxitjan KEDELBAYEV, Javohir KARIMOV. Tibbiy kimyo fanini o‘qitishda muammoli vaziyatlar usuli.....	207
Nazifa ACHILOVA. Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish .....	212
Madina AVEZOVA. Innovative forms of modern education.....	217
Mahfuz ODILLOVA. Qora-qir ko‘lidagi suvning fizik-kimyoviy tarkibi .....	221
Laziz NIYAZOV, Anatoliy BREL, Umurbek G’APUROV. Xorijiy talabalarga tibbiy kimyo fanidan dars berishning o‘ziga xosliklari .....	224
<b>IQTISODIYOT VA TURIZM .....</b>	<b>227</b>
Nurazimxon MAMAXONOVA. O‘zbekiston va Yevropa: hamkorlikning yangi bosqichi .....	227
<b>TASVIRIY SAN’AT VA MUSIQA TA’LIMI .....</b>	<b>232</b>
Saidaxbor BULATOV. “Vanitas” usulida ishlangan natyurmortdagি o‘n sakkiz ming olam falsafasi .....	232
<b>JISMONIY MADANIYAT VA SPORT.....</b>	<b>237</b>
Ilhomjon TURSUNALIYEV. Jismoniy tarbiya va sport sohasi tadqiqotlariga ilmiy sharh: muammodan amaliy natija sari .....	237
G‘ayrat SALIMOV, Abdullo FOZILOV. Talabalarning o‘quv jarayonida jismoniy madaniyatini shakllantirish muammofiga tizimli yondashuv .....	239
Nurzod DAVRONOV. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy sifatlarini rivojlantirishda xalq bayramlarining qadriyat sifatidagi ahamiyati .....	243
Раджаб БАЙМУРАДОВ, Малоҳат БАҲШУЛЛАЕВА. Творческое отношение к работе - залог успеха в педагогической деятельности.....	246
Muxsinbek OLIMOV. Yengil atletikachilarning ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg‘ulot yuklamalarini taqsimlash va boshqarish texnologiyasi.....	250
Ta’lim-tarbiya fidoyisi.....	254
“Педагогик маҳорат” журнали учун маколаларни расмийлаштириш талаблари.....	255

**Nurzod DAVRONOV**  
 Buxoro davlat universiteti  
 jismoniy madaniyat nazariyasi  
 va uslubiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANТИRISHDA XALQ BAYRAMLARINING QADRIYAT SIFATIDAGI AHAMIYATI

*Mazkur maqolada o‘zbek xalq bayramlarining mamlakatimiz kelajagi hisoblanmish yoshlarimizni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishdagi ahamiyati yoritilib, bayramlarda tashkil etiladigan milliy o‘yinlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniy sifatlarini shakllantirishdagi o‘rnini ko‘rsatilgan.*

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, xalq bayramlari, milliy o‘yinlar, rivojlanish, barkamollik, jismoniy sifatlar, an’ana, qadriyat.

*В данной статье освещается роль узбекских национальных праздников в всестороннем развитии молодежи, а также в формировании физических качеств школьников начальных классов.*

**Ключевые слова:** воспитание, народные праздники, национальные игры, развитие, совершенство, физические качества, традиция.

*This article highlights the role of Uzbek national holidays in the comprehensive development of young people, as well as in the formation of physical qualities of primary school students.*

**Key words:** education, national holidays, national games, development, perfection, physical qualities, tradition.

**Kirish.** Yosh avlodni ma’naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan muhim masalalaridan biridir. Bu masalani amalga oshirishda esa boshlang‘ich ta’lim muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich ta’limda yoshlarimizni aqliy hamda axloqiy tarbiyalash bilan bir qatorda ular organizmining shakllanishi va rivojlanishida asosiy ahamiyat kasb etadigan jismoniy tarbiyaning o‘rnini beqiyosdir. Darhaqiqat, mamlakatning kelajagi ham aqlan, ham ma’nan, ham jismonan uyg‘unlikda faoliyat olib boradigan yoshlarimizning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqidir. Maktab o‘quvchisining shaxs, komil inson bo‘lib shakllanishida, rivojlanishida jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Xalq jismoniy tarbiyasi esa insoniyat rivojining ilk bosqichlaridayoq bola va o‘smirlarning shakllanishida asosiy vositalaridan biri bo‘lgan. Shu bois bugungi milliy o‘zligimizni anglayotgan davrda xalqning milliy qadriyatlariiga asoslangan jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etmoqda.

**Asosiy qism.** Milliy qadriyatlarni ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishda olimlardan akademik J.Tulenov, professorlar M.Murodov, U.Qoraboyev, I.Jabborov, N.Bekmurodov, T.Javliyev kabilarning ishlarini alohida ta’kidlash o‘rninidir. Jismoniy tarbiya va sportga oid milliy qadriyatlarni ilmiy o‘rganish va keng targ‘ib qilishda olimlarimizdan A.Q.Atoyev, R. Abdumalikov, T.S.Usmonxo‘jayev, R.S.Salomov, O‘.Ibragimov, X.A.Meliyev, Sh.Xonkeldiyev, A.Abdullayev, K.Maxkamjonov, X.T.Rafiyev, K.D.Yarashev, R.K.Qudratov, T.X.Xoldorov, F.Xo‘jayev, K.Yusupovlarning ishlarini alohida ta’kidlash zarurdir. Qadriyatlarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati haqida professorlar X.Homidov, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Inomova, M.Davletshin, F.Nasriddinov, T.Usmonxo‘jayev, X.Rafiyev, O‘.Ibrohimov, R.Abdumalikov, F.Axmedov, X.Meliyev, Sh.Q.Mardonov, O.Jamoliddinovalarning maqolalari, risolalari, uslubiy qo‘llanmalari, monografiyalar va ular tomonidan ilmiy darajalar uchun yozilgan dissertatsiyalari hamda o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini alohida takidlash lozim. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarda jismoniy sifatlarni har tomonlama rivojlanтиrish, ularning milliy qadriyatlarga e’tiborini oshirish, ma’naviy, axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun kichik maktab yoshi eng qulay davr hisoblanadi. O‘z navbatida shaxsning jismoniy shakllanishi va jismoniy tayyorgarlik dinamikasi o‘quvchining mehnat qilish layoqati va izchil bajariladigan jismoniy mashqlarning xususiyatiga bog‘liqidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining jismoniy sifatlarini rivojlanтиrish uchun milliy va harakatli o‘yinlarga asoslangan dars, mashqlarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazish eng muhim masaladir. Ko‘pgina tadqiqotchilar maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi bo‘yicha olgan ma’lumotlar tahvilining ko‘rsatishicha kichik maktab yoshiga kelib rivojlanishning tezlashish jarayoni ro‘y beradi. Shunga asosan mazkur maqolamizda milliy xalq bayramlari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy sifatlarni shakllantirish masalasiga e’tiborimizni qaratdik.

O‘zbek xalq bayramlari o‘zining uzoq o‘tmishi, boy tarixiga ega bo‘lgan, ajdoddlardan avlodlarga meros sifatida o‘tib kelayotgan ma’naviy boyligimiz, qadriyatlarnimizdan hisoblanadi.

Ibn Sino “Tib qonunlari” asarida kurash va jismoniy mashqlarning kishi badantarbiyasidagi o‘rni, o‘yinning shifobaxsh xususiyatlari haqida to‘xtalga. Kaykovus, Umar Hayyom, Abulqosim Firdavsiy, Beruniy chavgon, nard, shaxmat, tirandozlik, qilichbozlik, chavandozlik kabi yuzlab o‘yinlar xususida yozib qoldirgan. Alisher Navoiy asarlarida bayramlar, tantanalar, to‘ylar munosabati bilan tashkil etilgan o‘yinlar haqida ko‘pgina ma’lumotlar bor. Ularda o‘yinlarning uyushtirilishi, ijrochilar, o‘tkazish qoidalari bayon etilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab milliy qadriyatlarni, an’ana va udumlarimiz, shu jumladan, xalq bayramlarini qayta tiklashga katta e’tibor qaratildi.

Shunday milliy xalq bayramlarimizdan biri bu Navro‘z hisoblanadi. Ha, Navro‘z shunchaki bayram emas. Uning millat tarixi, falsafasi, badiiyati va san’ati, madaniyati, mifologik, diniy va dunyoviy dunyoqarashini, ilmiy tafakkur tarzini o‘zida mujassam etgan qomusiy bir ayyom ekanligi mustaqillik sharofati bilan tiklandi. Navro‘z hamisha barcha davrlarda ham ommaviy ravishda katta maydonlarda, saylgohlarda zo‘r tantana bilan nishonlangan. Katta-yu kichik, yosh-u qari, erkak-u ayol – butun xalqning ezgu niyatlar, shodiyona olqishlarining quvvati qo‘silib, borliqni onadan tug‘ilganday tozartib, yashnatishga xizmat qilgan. Bayramning tantana qilinishi, unda uyushtirilgan barcha o‘yin-tomoshalar, qo‘siq-raqslardan kutilgan muddao ham ushbu maqsadga yo‘naltiriladi.

Mustaqillik sharofati ila bu bayram hayotda yana o‘z o‘rnini topdi, yangicha mazmun va mohiyat kashf etdi. Chinakamiga xalq shodiyonasining tantanasiga aylandi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, ‘Navro‘z xalqimizning ma’naviy qiyofasini va pokiza his tuyg‘ularini, o‘lmas ruhi va madaniyatini o‘zida yorqin namoyon etadigan eng ko‘hna, eng sevimli, chinakam milliy ayyomimizdir. Navro‘zning o‘lmas ruhi va boqiy falsafasi biz bugun bunyod etayotgan Yangi O‘zbekiston g‘oyasi bilan uyg‘un va hamohangdir’.

Navro‘z nafaqat tabiatning o‘zgarishi, yasharishi, balki inson qalbi, ruhiyati va tafakkur tarzining ham yangilanishidir. Inson tabiatni anglash orqali, o‘zligi, “men”ligini kashf etadi, qalbida o‘ziga ishonch, ertangi kun umidi uyg‘onadi. Shuning uchun ham bu bayram hamma davrlarda ham tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, do‘stlik, yurtga, ona tabiatga mehr-muhabbatning taronasi, har insonning o‘z xalqi, uning tarixi va madaniyatiga bo‘lgan hurmatining nishonasi bo‘lib kelgan. Endilikda o‘zining teran mohiyati hamda chuqur falsafasi, yasharish va yangilanish pallasi, sharqona yangi yilning debochasi sifatida hayotimizda alohida o‘rin egalladi. Navro‘z bilan bog‘liq tadbirlar, kurash, ko‘pkari, poyga kabi ko‘plab xalq milliy o‘yinlari, folklor namunalari, rasm-rusmlar, urf-odatlar, qadriyatlardan tiklandi va ular yoshlarni milliy hamda umumbashariy g‘oyalar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qadimiy tarixga ega bo‘lgan xalq milliy o‘yinlari o‘zining jozibasi, rango-rangligi, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik va ruhiy tarbiyadagi o‘rni bilan beqiyos ahamiyatga ega. Ular hech qachon shunchaki ermak bo‘lмаган, balki kishining go‘daklikdan o‘sib-ulg‘aygunicha eng muhim tarbiya vazifasini o‘tagan. Murg‘ak bola qatnashgan o‘yinlar orqali hayat voqealari, tabiat hodisalari, so‘z qudrati, insoniy munosabatlari o‘rgatilgan. Xusan, “Besh tosh”, “Pichoq”, “Jambul”, “Yong‘oq menganlik”, “Varrak”, “Ovchi”, “Mindi”, “Arqon tortish”, “Chillak” kabi o‘yinlar kurashishni o‘rgatadi, aqlni charxlaydi. O‘z-o‘zini anglashni, xatolarni tuzatish tuyg‘usini shakllantiradi. Jamoaviylik tuyg‘usini hech narsa o‘yinarchalik singdira olmaydi.

Xalq an’anaviy milliy o‘yinlari nomoddiy madaniy merosga kiradi. Shunday bo‘lgach, uzoq ajdodlarimiz yaratgan va bizgacha “suyak surib” yetib kelgan xalq milliy o‘yinlarini izlamoq, topmoq, qayta tiklab, yosh avlod kamoloti uchun joriy etmoq har bir vatanparvar yosh-u keksanining, ziyoli-yu ishchining burchiga aylansa, ma’naviy, madaniy, ruhiy qudratimiz yanada kuchli, baquvvat bo‘ladi.

**Muhokamalar va natijalar.** Bugun yurtimizda yoshlarni sportga, xalq bayramlarida takshil etiladigan milliy xalq o‘yinlariga keng jalb qilish masalasiga sog‘lom avlodni voyaga yetkazishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Darhaqiqat, sog‘lom avlodni shakllantirishda milliy xalq bayramlari muhim ahamiyat kasb etadi. Barchamizga ma’lumki, butun yer yuzida har bir xalq millat sifatida shakllanibdiki, ular o‘zining milliyligiga egadir, shu bois, o‘zbek xalqining milliy urf-odatlari, bayramlari an‘analari, qadriyatlari hamda milliy o‘yinlari ham takomillashib bordi.

Milliy xalq bayramlarining sog‘lom avlod tarbiyasidagi ahamiyati pedagogik, psixologik, tarbiyaviy, jismoniy va sog‘lomlashtiruvchi nuqtayi nazarda ko‘rib chiqiladi.

Pedagogik ahamiyati – xalq bayramlarida tashkil etiladigan o‘yinlar har bir shaxsning his-tuyg‘usini, tasavvurini, dunyoqarashini boyitib boradi. Yana ularning kuzatuvchanligi, ziyrakligi va zehnini tahlil qilib, bilimini oshiradi. O‘yinlar orqali yoshlarga madaniyatimiz va urf-odatlarimiz tanishtiriladi.

Psixologik ahamiyati – o‘yinlar shaxsning ruhiyati va kayfiyatini ko‘tarishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy ahamiyati – yoshlarni irodali, sabr-toqatli, hayat qiyinchiliklarini yengadigan, g‘alaba qozonishga intiladigan, chaqqon, epchil, mard qilib tarbiyalaydi.

Jismoniy va sog‘lomlashtiruvchi ahamiyati – xalq bayramlarida tashkil etiladigan milliy o‘yinlar o‘ynalganda organizm tizimlari – nafas olish, mushak, yurak qon tomirlarga samarali ta’sir qiladi. O‘yinlar ochiq havoda o‘ynalganda qon kislorod bilan to‘yinadi va bu moddalar almashinuvini kuchaytiradi. Bu esa organizmga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi va barcha hujayralar uyg‘onadi. O‘yin o‘ynagan shaxs jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lib voyaga yetadi. Xalq milliy bayramlarining barchasida chaqqonlik, epchillik, jasurlik, pahlavonlik, mardlik kabi jismoniy sifatlar va insoniy fazilatlar to‘la mujassamlashgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan milliy o‘yinlarning elementlari, harakatli o‘yinlarning maqsadli tashkil qilinishi natijasida ularning ongiga milliy qadriyatlarimiz tobora singdirib boriladi. Natijada ta’limtarbiya jarayonlarida milliy o‘yinlar tobora singib, keng qo‘llanish imkoniyatlari yaratadi. “Navro‘z”, “Mustaqillik kuni”, “Hosil bayrami” kabi xalq bayramlarida milliy o‘yinlarimiz (arqon tortish, bilak kuchini sinash, ot o‘yinlari, xo‘roz, qo‘chqor urishtirish) keng ommalashib bormoqda. Hatto, chet elliklarda ham qiziqish uyg‘otmoqda.

**Xulosa.** Inson o‘zini jismonan tarbiyalashi uchun jismoniy tarbiya va sportning zarurligini tushunib yetishi va qunt bilan o‘ziga yoqqan ma’lum bir jismoniy mashg‘ulotlar tizimi asosida salomatligini shakllantirishi kerak. Yosh avlodning jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lgan jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi jamiyatning sog‘lom, xushchaqchaq, har tomonlama jismoniy rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan quruvchilarini tarbiyalashdan iborat uzoq muddatli, uyuşhtirilgan pedagogik jarayondir.


Jismoniy tarbiya oldida turgan vazifalarini hal etishda xalq bayramlarida tashkil etiladigan o‘yinlarni to‘plash va ularni hayotga tadbiq etish, ulardan oqilona foydalanan zarurligi bugungi kunda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim vazifa yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy tarbiya oldiga ham katta ma’suliy yukladi.

Mamlakatimizda xalq bayramlarida tashkil etiladigan milliy o‘yinlarga keng e’tibor berib kelinishi natijasida ularning mazmunida milliy qadriyatlar, g‘urur, iftixor, mardlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, o‘zaroydarm, vatanga sadoqat kabi his-tuyg‘ular, fazilatlar to‘la mujassamlashganligini e’tirof etishimiz mumkin.

Yoshlarni har tomonlama jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, o‘quvchilar jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bu muammoni umumta’lim maktab o‘quvchilari jismoniy tarbiyasini tashkiliy va pedagogik jarayonlar bilan birga bir-biriga bog‘lab kelgan uzviylikda ko‘rib chiqish lozimligini keltirib chiqaradi, bunda milliy harakatli o‘yinlarining ahamiyati katta ekanligini qayta-qayta ta’kidlab o‘tmochimiz. Shuning uchun xalqimizning asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan milliy o‘yinlarini avaylab-asrab, keyingi avlodga yetkazish yo‘llarini izlash, ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish bizning maqsadimizdir.

## Adabiyotlar

1. “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chorat-adbirlari to‘g“risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyun PQ-3031-sон Qarori.
2. Ahmedov F., Atamurodov Sh., Boshlang‘ich sinflarda jismoniy madaniyat darslari. Uslubiy qo‘llanma. -T.: “Turon zamin ziyo”, 2017. -140 b.
3. Yo‘ldosheva R. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. –Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1992-yil.
4. Qoraboyev U. O‘zbek xalq o‘yinlari ilmiy ommabop kitob. -T., 2008.
5. Davronov N. I. DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF CHILDREN IN THE HERITAGE OF OUR ANCESTORS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 3.
6. Davronov N. I. THE CONCEPT OF PHYSICAL EDUCATION AND PHYSICAL CULTURE //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 91.
7. Давронов Н. И. “Авеста” как ценность и источник по физическому воспитанию молодежи //Педагогическое образование и наука. – 2020. – №. 1. – С. 87-91.
8. Давронов Н. И. ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ВРЕДНЫХ ПРИВЫЧЕК У ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА //EUROPEAN RESEARCH. – 2018. – С. 132-134.
9. Mamurov B. et al. Acmeological Approach to the Formation of Healthy Lifestyle Among University Students //III International Scientific Congress Society of Ambient Intelligence 2020 (ISC-SAI 2020). – Atlantis Press, 2020. – С. 347-353.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej,  
institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo’llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o’tamiz, maqola qo’lyozmalari universitet  
tahririy-nashriyot bo’limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko’chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g’aznachiligi  
23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275  
BuxDU 400110860064017950100079002

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlaniramiz!*

**PEDAGOGIK  
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik  
jurnal**

**2021-yil 3-son (79)**

**2001-yil iyul oyidan  
chiqa boshlagan.**

**OBUNA INDEKSI: 3070**

**Buxoro davlat universiteti nashri**

Jurnal oliv o’quv yurtlarining professor-o’qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o’qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo’ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas’ul:  
Alijon HAMROYEV.  
Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.  
Muhammarr: O’g’iljon Olloqova**

Jurnal tahririyat kompyuterida  
sahifalandi. Chop etish sifati uchun  
bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 28.06.2021  
Bosmaxonaga topshirish vaqtி  
30.06.2021

Qog’oz bichimi: 60x84. 1/8  
Tezkor bosma usulda bosildi.  
Shartli bosma tabog’i – 20,6  
Adadi – 100 nusxa  
Buyurtma № 230  
Bahosi kelishiilgan narxda.

“Sadreddin Salim Buxoriy” MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri  
M.Iqbol ko’chasi 11-uy.